

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI**

**KORXONALAR VA TASHKILOTLARNING YAGONA DAVLAT REGISTRINI
YURITISH VA UNING ASOSIDA DAVLAT XIZMATINI KO‘RSATISHGA OID
NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLARNI TASDIQLASH TO‘G‘RISIDA**

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining **Qonuni** hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat xizmatlari ko‘rsatish infratuzilmasini takomillashtirish va aholining davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 24-iyuldagi PF-6269-son **Farmoni** ijrosini ta‘minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat xizmatlari ko‘rsatish infratuzilmasini takomillashtirish va aholining davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 24-iyuldagi PF-6269-son **Farmoniga** muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (keyingi o‘rinlarda — **KTYADR**) bo‘yicha ma‘lumot taqdim etish xizmatining davlat xizmatlari markazlari va Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (keyingi o‘rinlarda — **YIDXP**) orqali ko‘rsatilishi belgilab qo‘yilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilarni nazarda tutuvchi:

a) Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to‘g‘risidagi nizom **1-ilovaga** muvofiq:

Yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida yuridik shaxslarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashni ta‘minlash;

davlat boshqaruvi organlari bilan axborot almashish borasida o‘zaro hamkorlik qilishda ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarning mosligini va taqqoslanuvchanligini ta‘minlash;

ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organlardan olingan yuridik shaxslar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni to‘plash va saqlash, shuningdek, ularni foydalanuvchilarga belgilangan tartibda taqdim etish tartibi;

b) Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bo‘yicha ma‘lumot taqdim etish xizmatini ko‘rsatishning ma‘muriy reglamenti **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin:

KTYADR bo‘yicha ma‘lumotlarni taqdim etish xizmati doirasida olinishi mumkin bo‘lgan ma‘lumotlar ro‘yxati;

tegishli ma‘lumotlarni olish uchun davlat xizmatlari markazida yoki **YIDXP** orqali elektron shaklda so‘rovnoma to‘ldirish, zarur ma‘lumotlarning xususiyatlarini axborot tizimida belgilash hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasiga yuborish tartibi;

xizmatdan foydalanuvchi davlat xizmatlari markazi orqali murojaat etganda, har bir yuridik shaxs bo‘yicha taqdim etiladigan ma‘lumotlar uchun yig‘im miqdori;

talab etilgan ma‘lumotlarni to‘lov amalga oshirilgandan so‘ng xizmatdan foydalanuvchiga taqdim etish tartibi.

3. Belgilansinki, xizmatdan foydalanuvchilar **KTYADR** bo‘yicha ma‘lumotlarni O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy veb-sayti orqali so‘ralayotgan yuridik shaxsning soliq to‘lovchining identifikatsiyalash raqami kodini kiritgan holda real vaqt rejimida bepul olishlari mumkin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamda Adliya vazirligi bilan birgalikda ikki oy muddatda:

ushbu qaror bilan tasdiqlanayotgan Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bo‘yicha ma‘lumot taqdim etish xizmatini ko‘rsatishning ma‘muriy reglamenti bo‘yicha davlat xizmatining **YIDXP** orqali joriy etilishini;

davlat xizmatini ko‘rsatish uchun yig‘imlarning davlat xizmatlari ko‘rsatilganligi uchun to‘langan davlat bojlari va yig‘imlar summasi hisobini yurituvchi yagona billing tizimi orqali elektron shaklda to‘lanishini ta‘minlasin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining 3-ilovaga muvofiq ayrim qarorlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari — iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vaziri J.A. Qo‘chqorov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2022-yil 28-sentabr,
539-son

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi 539-son qaroriga
1-ILOVA

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to‘g‘risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat xizmatlari ko‘rsatish infratuzilmasini takomillashtirish va aholining davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 24-iyuldagi PF-6269-son Farmoniga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrining (keyingi o‘rinlarda — KTYADR) axborot fondini tashkil etish hamda yuritish tartibini belgilaydi.

2. KTYADR axborot-ma‘lumotnoma tusidagi, real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma‘lumotlardan iborat bo‘lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashni ta‘minlaydi.

KTYADR davlat statistikasining yagona axborot tizimi tarkibidagi davlat axborot resursi hisoblanadi.

KTYADR davlat tilida yuritiladi.

3. Quyidagilar KTYADRni yuritishning maqsadi hisoblanadi:

yagona tasniflar tizimi asosida yuridik shaxslarning yagona davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashni ta‘minlash;

ro‘yxatdan o‘tkazuvchi va boshqa davlat organlaridan olingan yuridik shaxslar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni to‘plash va saqlash, shuningdek, ularni davlat boshqaruvi organlariga va boshqa foydalanuvchilarga belgilangan tartibda taqdim etish;

statistika registrlarini hamda statistika kuzatuvlari obyektlarining ma‘lumotlar bazalarini shakllantirish va muntazam yangilab borish;

respublika va hududiy davlat boshqaruvi organlari bilan axborot almashish borasida o‘zaro hamkorlik qilishda ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarning mosligini va taqqoslanuvchanligini ta‘minlash.

4. Quyidagilar KTYADRni yuritishning asosiy prinsiplari hisoblanadi:

KTYADR tarkibidagi korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni to‘plash, yangilash, saqlash va tarqatishning xalqaro standartlarga muvofiq bo‘lgan metodologiyasining yagonaligi;

statistika tasniflagichlaridan foydalangan holda, KTYADR axborotlarini kodlashtirishning yagona tizimini qo‘llash;

O‘zbekiston Respublikasi hududida tashkil etilgan yuridik shaxslarni to‘liq qamrab olish;

yagona dasturiy-texnik vositani qo‘llash va doimiy ravishda yangilab borish;

KTYADR axborotlaridan foydalanishning qulayligi va uni Milliy axborot tizimiga integratsiyalash.

2-bob. KTYADR axborot fondining mazmuni

5. KTYADR axborot fondi O‘zbekiston Respublikasi hududida qonunchilikda belgilangan tartibda tashkil etilgan va davlat ro‘yxatidan o‘tgan yuridik shaxslar to‘g‘risida quyidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi:

identifikatsiyalash ko‘rsatkichlari — yuridik shaxsning nomi, korxon va tashkilotning umumdavlat tasnifi kodi (keyingi o‘rinlarda — KTUT), soliq to‘lovchining identifikatsiyalash raqami (keyingi o‘rinlarda — STIR);

yuridik shaxsning klassifikatsiya ko‘rsatkichlari — asosiy faoliyat turining xususiyati, joylashgan joyi, tashkiliy-huquqiy shakli, kichik tadbirkorlik subyektlariga mansubligi, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari tuzilmasiga kirishi;

ma‘lumotnoma tusidagi ko‘rsatkichlar — pochta manzili, telefonlar raqami, ta‘sischilari (aksiyadorlik jamiyatlari bundan mustasno) to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, rahbari, ustav fondi, yuridik shaxslarning davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi (faoliyat ko‘rsatayotganligi, faoliyat ko‘rsatmayotganligi va tugatilganligi) to‘g‘risidagi boshqa ma‘lumotlar.

6. KTUT — KTYADRga kiritishda yuridik shaxsga beriladigan va statistika kuzatuvlarini amalga oshirish jarayonida foydalaniladigan individual raqam hisoblanadi.

KTUT sakkizta raqamli belgilardan iborat bo‘ladi, dastlabki yettita raqam generatsiyalaydigan dasturiy metod bilan tasodifiy raqamni tashkil qiladi, sakkizinchi raqam kod himoyachisi hisoblanadi (bir razryadli nazorat soni).

KTUT bir marta beriladi, yuridik shaxsning tugatilishi munosabati bilan bekor qilinmaydi va boshqa yuridik shaxsga berish uchun undan takroran foydalanilmaydi.

7. Tasniflash ko‘rsatkichlarini aniqlash uchun statistika ishlarini tashkil etish uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy-statistika tasniflagichlari qo‘llanadi.

Statistika organlari o‘rtasida axborot almashishni birxillashtirish maqsadida soliq va ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organlar tomonidan KTYADRda STIRdan foydalaniladi.

3-bob. KTYADRni yuritish

8. KTYADRni yuritish quyidagi holatlarda ma‘lumotlarning elektron bazasiga tegishli yozuvni kiritishni o‘z ichiga oladi:

a) yuridik shaxsni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishda;

b) yuridik shaxsning ta‘sis hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishda;

v) yuridik shaxsni qayta tashkil etishni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishda;

g) Yuridik shaxslarning yagona davlat reyestriga yuridik shaxs tugatilganligi yoki qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning faoliyati to‘xtatilganligi to‘g‘risidagi yozuvlarni kiritishda;

d) ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organdan yuridik shaxs tomonidan moliya-xo‘jalik faoliyati amalga oshirilmayotganligi yoki harakatsiz holatga o‘tkazilganligi, shuningdek, uning ixtiyoriy tugatish jarayonidaligi yoki tugatish jarayonining to‘xtatilganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar olinganda;

e) yuridik shaxsning joylashgan eri (pochta manzili) o‘zgarganda;

j) yuridik shaxsning asosiy faoliyat turi va unda ishlayotganlarning o‘rtacha yillik soni o‘zgarganda — yillik statistika hisoboti asosida hamda yuridik shaxslar va (yoki) ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organlarning murojaatlari asosida quyidagi hollarda:

yuridik shaxs yangi tashkil etilgan vaqtda asosiy faoliyat turi (IFUT) kodini biriktirishda yoki xodimlar soni to‘g‘risidagi ma‘lumotni to‘ldirishda noaniqlikka yo‘l qo‘yilgan deb hisoblanganda;

yuridik shaxs faoliyat ko‘rsatmayotganda, qo‘shib olish yo‘li bilan qayta tashkil etilganda, belgilangan tartibda faoliyati tiklanganda;

yuridik shaxs qayta ro‘yxatdan o‘tib, ta‘sis hujjatlarida ushbu faoliyat turi asosiy faoliyat turi deb belgilanganda;

yuridik shaxs ma‘lum faoliyatni amalga oshirish bo‘yicha litsenziya olganda yoki litsenziyasi bekor qilinganda;

z) yuridik shaxsning idoraviy mansubligi o‘zgarganda — uning muassislari hamda davlat boshqaruvi organlari va xo‘jalik birlashmalaridan tushgan ma‘lumotlari asosida.

9. KTYADRni yuritish uchun:

ro'yxatdan o'tkazgan organlardan tushadigan ma'lumotlardan;

statistika kuzatuvlarini amalga oshirishda olingan statistika ma'lumotlaridan;

soliq va boshqa davlat organlarining registrlaridan hamda ma'lumotlar axborot bazalaridan foydalaniladi.

10. KTYADR ma'lumotlar yagona bazasiga yozuvlarni kiritish tartibi va ularning shakllari O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

11. KTYADR milliy statistika tizimida qo'llanadigan dasturiy-texnologik vositalardan foydalangan holda elektron shaklda yuritiladi.

KTYADR ma'lumotlari yo'qolishining oldini olish maqsadida har oyda elektron manbalarda oyning 1-kunidagi holatiga ko'ra, uning zaxira nusxasi shakllantiriladi, uning yo'qolishini bartaraf etadigan joylarda asl nusxasi bilan birgalikda saqlanadi.

4-bob. KTYADRni yuritishda qatnashadigan tashkilotlarning funksiyalari

12. KTYADR O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri, tumanlar va shaharlardagi hududiy organlari tomonidan yuritiladi.

13. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi quyidagilarni ta'minlaydi:

KTYADRni rivojlantirishning metodologik asoslari va yo'nalishlarini ishlab chiqish;

KTYADR ma'lumotlari elektron bazasini ishlatish va boshqarish hamda ushbu bazani yuritishda qatnashuvchi organlar tomonidan undan belgilangan tartibda foydalanish;

yuridik shaxslarni hisobga qo'yish va ro'yxatdan o'tkazilgan yuridik shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarga o'zgartirishlar kiritish bo'yicha ishlarga metodik rahbarlik qilish va ularni muvofiqlashtirish;

statistika tasniflagichlari tizimini yuritish;

KTYADRning zaxira nusxalarini saqlash va axborot xavfsizligini ta'minlash;

davlat organlari bilan idoralararo axborot almashish;

KTYADRdan foydalanuvchilarga qonunchilikda belgilangan tartibda axborot-ma'lumotnoma xizmati ko'rsatish.

14. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri, tumanlar va shaharlardagi davlat statistika organlari quyidagilarni ta'minlaydi:

ro'yxatdan o'tkazuvchi organlardan tushadigan KTYADR ma'lumotlarini qayta ishlash hamda axborotlarning yo'qolishi, buzilishi va soxtalashtirilishiga yo'l qo'ymaslik;

KTYADRdagi tasniflash ko'rsatkichlarini statistika kuzatuvlarini o'tkazish jarayonida olingan dastlabki statistika ma'lumotlari asosida o'z vaqtida o'zgartirish;

tegishli hududdagi davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlar, soliq organlari va davlat mulkini boshqarish organlari bilan o'zaro hamkorlik qilish;

KTYADRdan foydalanuvchilarga qonunchilikda belgilangan tartibda axborot-ma'lumotnoma xizmati ko'rsatish.

15. Quyidagi ma'lumotlar qonunchilikda belgilangan tartibda bepul taqdim etiladi:

KTYADRdagi ma'lumotlar — davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga, huquqni muhofaza qilish organlariga;

KTYADRdagi ma'lumotlar — yuridik shaxsga unga berilgan statistika kodlari, ularning o'zgarishi to'g'risidagi ma'lumotlar.

16. Quyidagilar:

yuridik shaxslar — tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazadigan organlar Yuridik shaxslarning yagona davlat reyestriga ushbu Nizom 8-bandining "a" kichik bandida ko'rsatilgan ma'lumotlar kiritilgandan keyin bir kun muddatda ushbu Nizom 8-bandining "b" — "e" kichik bandlarida ko'rsatilgan ma'lumotlar kiritilgandan keyin ikki kun muddatda davlat statistika organlariga elektron shaklda ilovaga muvofiq ma'lumotlar yuboradi;

yuridik shaxslar — davlat va nodavlat notijorat tashkilotlarni davlat ro'yxatidan o'tkazadigan organlar ushbu Nizom 8-bandining "a" — "e" kichik bandlarida ko'rsatilgan

ma'lumotlar Yuridik shaxslarning yagona davlat reyestriga kiritilgandan keyin ikki kun muddatda davlat statistika organlariga elektron shaklda **ilovaga** muvofiq ma'lumotlar yuboradi.

Ushbu bandning **ikkinchi** va **uchinchi xatboshilarida** ko'rsatilgan ma'lumotlar davlat statistika organlariga O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining dasturiy-texnologik vositalaridan foydalangan holda, Internet jahon axborot tarmog'i orqali taqdim etiladi.

17. KTYADRdagi identifikatsiyalash, tasniflash ko'rsatkichlari, shuningdek, yuridik shaxslarning joylashgan eri (pochta manzili), telefon raqamlari, yuridik shaxslarning ta'sischi (aksiyadorlik jamiyatlari bundan mustasno), rahbari (soliq organlari ma'lumotlari asosida), davlat ro'yxatidan o'tkazilgan tartib raqami va sanasi (ustav fondi va ta'sis hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish, yagona davlat reyestridan chiqarish) to'g'risidagi ma'lumotlari barchaning foydalanishi uchun ochiq hisoblanadi, KTYADRdagi boshqa ko'rsatkichlar maxfiy tUSDagi axborot hisoblanadi.

Bunda yuridik shaxslarning ta'sischi to'g'risidagi ma'lumotlar faqatgina eng yuqori ulushga ega 5 ta ta'sischi haqidagi ma'lumotlar hamda 5 tadan ko'p ta'sischi bo'lgan yuridik shaxslarda beshinchi satrda qolgan ta'sischi yig'indisi aks ettiriladi.

18. KTYADRdan olingan ma'lumotlarni foydalanuvchilar tomonidan axborotning manbaini ko'rsatmasdan tarqatishga va (yoki) KTYADRdagi ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga tijorat maqsadlarida berishga yo'l qo'yilmaydi.

5-bob. KTYADRni tugatish

19. KTYADR qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda tugatiladi.

Tugatishda, agar qonunchilik hujjatlarida boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, KTYADR ma'lumotlari bazasi O'zbekiston Respublikasi Davlat arxiviga beriladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to'g'risidagi **nizomga**
ILOVA

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat reyestridagi yuridik shaxs to'g'risidagi MA'LUMOTLAR

1. Yuridik shaxsning nomi

To'liq:

Qisqacha:

2. Joylashgan eri (pochta manzili)

Telefon raqami:

Elektron manzili (tashkilot yoki muassisning):

3. Yangi tashkil etilgan:

qayta tashkil etish yo'li bilan tashkil etilgan:

faoliyati tiklangan (tugatish tartiboti to'xtatilgan):

ta'sis hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan:

joylashgan eriga (pochta manziliga) o'zgartirish kiritilgan:

belgilangan muddatda moliya-xo'jalik faoliyati amalga oshirilmagan yoki ustav jamg'armasi shakllantirilmagan, ixtiyoriy tugatish jarayonida:

4. Tashkiliy-huquqiy shakli kodi: _____

mulkchilik shakli kodi: _____

MHOBT kodi: _____

KTUT kodi: _____

faoliyatining asosiy turi: _____

STIR: _____

5. Muassislar haqidagi ma'lumotlar: _____

Muassislar			Ta'sischilarning ustav jamg'armasidagi ulushi	
T.r.	Mamlakat kodi	Nomi (jismoniy shaxslar uchun — F.I.O.)	ming so'm	%
1.				
2.				
3.				
4.				
5.				
Jami ustav jamg'armasi				

6. Xodimlarning mo'ljallanayotgan soni*: _____ kishi

*yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar uchun

7. Ro'yxatdan o'tkazgan organning nomi: _____

8. Ro'yxatdan o'tkazilgan _____
 (raqami) (sanasi)

9. Tugatilgan (faoliyati to'xtatilgan**) _____

** qo'shish yoki birlashtirish yo'li bilan qayta tashkil etilgan _____
 yuridik shaxslar uchun (raqami) (sanasi)

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi 539-son qaroriga
 2-ILOVA

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bo'yicha ma'lumot taqdim etish xizmatini ko'rsatishning

MA'MURIY REGLAMENTI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Ma'muriy reglament davlat xizmatlari markazlari va O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (keyingi o'rinlarda — YIDXP) orqali Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (keyingi o'rinlarda — KTYADR) bazasidan ma'lumotlarni taqdim etish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatish tartibini belgilaydi.

2. Davlat xizmatini ko'rsatish xizmatidan foydalanuvchilarning so'rovlariga ko'ra, KTYADR bazasida davlat organlari va tashkilotlarning yuridik shaxslar to'g'risidagi ma'muriy ma'lumotlaridan foydalangan holda, statistika tasniflagichlariga asosan shakllantirilgan ro'yxat asosida ma'lumotlar taqdim etiladi.

3. Ushbu Ma'muriy reglamentda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

KTYADR — axborot-ma'lumotnoma tusidagi, real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan, yagona tasniflagichlar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning (keyingi o'rinlarda — tashkilot) davlat hisobini yurituvchi hamda ularni identifikatsiyalashni ta'minlovchi avtomatlashtirilgan tizim;

KTYADR bo'yicha ma'lumot taqdim etish xizmatini taqdim etuvchi vakolatli davlat organi (keyingi o'rinlarda — vakolatli organ) — O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi;

ma'muriy ma'lumotlar — davlat boshqaruvi organlari, xo'jalik birlashmalari, shuningdek, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan o'z vakolatlarini amalga oshirish bilan bog'liq shakllantiriladigan ma'lumotlar;

tasniflash — rasmiy statistika sohasida qabul qilingan usullar va belgilarga muvofiq obyektlar to'plamini o'xshashligi yoki farqi bo'yicha alohida kichik to'plamlarga ajratish.

4. KTYADR bo'yicha ma'lumotlarni taqdim etish xizmati doirasida mazkur Ma'muriy reglamentga 1-ilovadagi ro'yxat asosida ma'lumotlar olinishi mumkin.

Bunda ma'lumotlar yuridik shaxslarning faollik holati (faoliyat ko'rsatayotgan, faoliyat ko'rsatmayotgan va tugatilgan) bo'yicha taqdim etiladi.

2-bob. KTYADR bo'yicha ma'lumotlarni taqdim etish xizmatini ko'rsatish tartibi

5. KTYADR bo'yicha ma'lumot taqdim etish davlat xizmati ushbu Ma'muriy reglamentga **2-ilovaga** muvofiq sxema asosida ko'rsatiladi.

6. Xizmatdan foydalanuvchi zaruratga ko'ra, KTYADR bo'yicha ma'lumotlarni olish uchun tegishli tashkilot xususiyatlarini (asosiy faoliyat turi, joylashuvi va tashkiliy-huquqiy shakllari) aniqlaydi.

Xizmatdan foydalanuvchi KTYADR bo'yicha ma'lumotlarni olish davlat xizmatidan foydalanish uchun istalgan davlat xizmatlari markazlariga bevosita o'zi kelib yoki ishonchli vakili orqali murojaat etadi yoxud davlat xizmatidan elektron shaklda foydalanish uchun YIDXPda ro'yxatdan o'tadi.

7. KTYADR bo'yicha ma'lumot taqdim etish davlat xizmatidan ushbu Ma'muriy reglamentga **3-ilovadagi** shaklga muvofiq so'rovnomani elektron shaklda to'ldirish orqali foydalaniladi.

Mazkur so'rovnomaga xizmatdan foydalanuvchilar quyidagi ma'lumotlarni kiritadi:

ariza beruvchi jismoniy shaxslar uchun — familiyasi, ismi, otasining ismi, ularning pasporti yoki identifikatsiyalovchi ID-kartasi ma'lumotlari (JShShIR ma'lumotlari), telefon raqami va elektron pochta manzili (mavjud bo'lsa);

ariza beruvchi yuridik shaxslar uchun — nomi, tashkiliy-huquqiy shakli, STIRi, joylashgan joyi (pochta manzili), bank rekvizitlari, elektron pochta manzili (mavjud bo'lsa) va telefon raqami.

8. So'rovnoma davlat xizmatlari markazi xodimi tomonidan to'ldirilib, xizmatdan foydalanuvchilar undagi ma'lumotlarning to'g'riligini tekshirgandan so'ng YIDXP orqali murojaat etilgan taqdirda, xizmatdan foydalanuvchilar tomonidan zarur ma'lumotlar so'rovnomaga kiritilgandan so'ng tegishli ma'lumot identifikatsiyalashning zamonaviy vositalari bilan ham tasdiqlanishi mumkin.

Xizmatdan foydalanuvchi davlat xizmatlari markaziga bevosita o'zi yoki ishonchli vakili orqali kelib murojaat etganda, uning so'rovnomasi davlat xizmatlari markazi xodimi tomonidan to'ldirilib, xizmatdan foydalanuvchining imzosi bilan tasdiqlangandan so'ng yoki YIDXP orqali murojaat qilganda — so'rovnoma xizmatdan foydalanuvchi tomonidan mustaqil ravishda to'ldirilgandan so'ng vakolatli organga elektron shaklda yuborish uchun tayyorlanadi.

9. So'rovnoma tayyorlangandan so'ng davlat xizmatlari markazi xodimi xizmatdan foydalanuvchi bilan birgalikda yoki YIDXP orqali murojaat qilinganda esa — xizmatdan foydalanuvchining o'zi quyidagi tasniflagichlar yordamida tegishli tashkilotning xususiyatlari to'g'risida zarur ma'lumotlarni shakllantiradi:

iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichiga muvofiq tashkilotning iqtisodiy faoliyat turi;

ma'muriy — hududiy obyektini belgilash tizimiga muvofiq tashkilot joylashgan hudud; tashkiliy-huquqiy shakllar tasniflagichiga muvofiq tashkilotning tashkiliy-huquqiy shakli.

Davlat xizmatlari markazi yoki YIDXP orqali so'rovnoma va unga asosan talab etilayotgan ma'lumotlarning xususiyatlari belgilangandan so'ng vakolatli organga elektron shaklda so'rov yuboriladi.

Bunda davlat xizmatlari markazi orqali murojaat qilinganda real vaqt rejimida, biroq bir soatdan oshmagan vaqtda, YIDXP orqali murojaat qilinganda esa so'rov avtomatik tarzda shakllantiriladi.

10. So'rov vakolatli organning axborot tizimiga kelib tushgandan so'ng tizim tomonidan ma'lumotning qiymati hisoblab chiqiladi va tegishligi bo'yicha davlat xizmatlari markaziga yoki xizmatdan foydalanuvchiga avtomatik ravishda YIDXP orqali ma'lum qilinadi.

11. Xizmatdan foydalanuvchi o'z xohishiga ko'ra, so'rov va unga ilova qilingan tashkilotning xususiyatlarini qamrab olgan tasniflagichlar asosida shakllantirilgan ma'lumotlar hajmi bilan tanishib chiqib, tegishli elektron to'lov tizimi orqali hisoblangan yig'im summasini to'laydi.

12. KTYADR bazasidan har bir tashkilot bo'yicha taqdim etiladigan ma'lumotlar uchun:

tashkilot soni 100 tagacha bo'lganda, BHMning 0,1 foizi miqdorda;
tashkilot soni 100 tadan 10 000 tagacha bo'lganda, BHMning 0,02 foizi miqdorda;
tashkilot soni 10 000 tadan ortiq bo'lganda, BHMning 0,01 foiz miqdorida yig'im undirish belgilanadi.

Xizmatdan foydalanuvchilar davlat xizmati ko'rsatilishi uchun YIDXP orqali murojaat etgan taqdirda, yig'im ushbu bandning **birinchi xatboshida** ko'rsatilgan summaning 90 foizi miqdorida undiriladi.

Xizmatdan foydalanish uchun to'lovlar amalga oshirilganligi Yagona billing tizimi orqali tasdiqlanadi.

13. Xizmatdan foydalanish uchun undirilgan yig'im summasi quyidagi tartibda taqsimlanadi:

a) davlat xizmatlari markazlari orqali murojaat etilganda:

0,5 foizi — yagona billing tizimi orqali davlat xizmati ko'rsatilganda O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi huzuridagi "Elektron hukumat loyihalarini boshqarish markazi" davlat muassasasining Moliya vazirligi G'aznachiligidagi maxsus hisob raqamiga;

20 foizi — O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlarini rivojlantirish jamg'armasi shaxsiy g'azna hisobvarag'iga;

qolgan mablag'lar — vakolatli organning hisobvarag'iga;

b) YIDXP orqali murojaat etilganda:

10 foizi — O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlarini rivojlantirish jamg'armasi shaxsiy g'azna hisobvarag'iga;

11,75 foizi (shundan 0,5 foizi — yagona billing tizimi orqali davlat xizmati ko'rsatilganda) — O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi huzuridagi "Elektron hukumat loyihalarini boshqarish markazi" davlat muassasasining Moliya vazirligi G'aznachiligidagi maxsus hisob raqamiga;

qolgan mablag'lar — vakolatli organning hisobvarag'iga o'tkaziladi.

14. Davlat xizmatlari ko'rsatilganligi uchun yig'im to'langanligi axborot-kommunikatsiya tizimlari orqali tasdiqlanadi.

15. Vakolatli organ axborot tizimi tomonidan KTYADR bo'yicha ma'lumotlarni sotib olish qiymati o'z vaqtida va to'liq to'langan taqdirda, KTYADR bo'yicha ma'lumotlar YIDXP orqali tegishligi bo'yicha davlat xizmatlari markaziga yoki xizmatdan foydalanuvchiga belgilangan tartibda yuboriladi.

Bunda KTYADR bo'yicha ma'lumotlar:

davlat xizmatlari markaziga yuborilganda, ular markaz tomonidan xizmatdan foydalanuvchiga elektron shaklda taqdim etiladi.

xizmatdan foydalanuvchining o'ziga yuborilganda, ma'lumotlar uning shaxsiy kabinetida namoyon bo'ladi va elektron shaklda yuklab olish imkoniyati yaratiladi.

Bunda davlat xizmati to'lov amalga oshirilgandan so'ng uch ish kunidan oshmagan muddatda ko'rsatiladi.

16. Xizmatdan foydalanuvchilar tomonidan ushbu Ma'muriy reglamentga asosan so'rovnomaga ilova qilinishi lozim bo'lgan hujjatlarning to'liq emasligi, tegishli ravishda rasmiylashtirilmagan va taqdim etilgan hujjatlarda noto'g'ri yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlarning mavjudligi hamda davlat xizmatlarini ko'rsatish uchun belgilangan yig'imning to'lanmaganligi davlat xizmatlari ko'rsatilishini rad etish uchun asos hisoblanadi.

Davlat xizmatini ko'rsatishni boshqa asoslar bo'yicha rad etish taqiqlanadi.

17. Murojaat qiluvchi davlat xizmatidan foydalanishdan uni ko'rsatishning har qanday bosqichida bosh tortish huquqiga ega. Murojaat qiluvchi davlat xizmatidan foydalanishdan bosh tortganda, uning talabnomasi ko'rib chiqilmasdan qoldiriladi. Bunda davlat xizmati ko'rsatilgani uchun to'lov summasi qaytarilmaydi.

3-bob. Yakunlovchi qoidalar

18. Davlat xizmatlari markazlari va vakolatli organ KTYADR bo'yicha ma'lumot taqdim etish xizmatini ko'rsatish natijasida xizmatdan foydalanuvchi haqida olingan arizada keltirilgan ma'lumotlarning sir saqlanishini ta'minlaydi.

19. Ushbu Ma'muriy reglament davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, huquqni muhofaza qilish organlarining KTYADR bo'yicha ma'lumot taqdim etish yuzasidan qilingan murojaatlariga nisbatan tatbiq etilmaydi hamda mazkur organlarga ma'lumotlar ularning davlat statistika organlariga murojaatlari asosida bepul taqdim etiladi.

20. Foydalanuvchilar bevosita vakolatli organning axborot resurslari yordamida real vaqt rejimida so'ralayotgan alohida yuridik shaxsning STIR kodini kiritib, mazkur Ma'muriy reglamentga **1-ilovada** ko'rsatilgan ma'lumotlarni bepul olishlari mumkin.

21. Davlat organlari va tashkilotlari KTYADRga taqdim etilayotgan ma'lumotlarning ishonchliligi, haqqoniyligi va dolzarbligini ta'minlaydilar.

Olingan ma'lumotlarda nomuvofiqliklar aniqlangan hollarda, xizmatdan foydalanuvchi tomonidan ularga aniqlik kiritish maqsadida vakolatli organga murojaat qilinishi mumkin.

22. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, uning hududiy tuzilmalari va davlat xizmatlari markazlari ushbu Ma'muriy reglamentning talablari ijrosi bo'yicha davlat organlari va boshqa tashkilotlarning faoliyatini doimiy nazorat qiladi va monitoring olib boradi.

23. Xizmatdan foydalanuvchilar davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlarining xatti-harakatlari yuzasidan qonunchilik hujjatlariga muvofiq shikoyat qilishlari mumkin.

24. Ushbu Ma'muriy reglament talablarining buzilishida aybdor bo'lgan davlat organining mansabdor shaxslari qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bo'yicha ma'lumot taqdim etish xizmatini
ko'rsatishning ma'muriy reglamentiga
1-ILOVA

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri bo'yicha ma'lumotlarni taqdim etish xizmati doirasida taqdim etiladigan ma'lumotlar

RO'YXATI

T/r	Ma'lumot nomi	Ma'lumotning tasnifi
1.	Tashkilot nomi	Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ tomonidan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan yuridik shaxsning individual nomi.
2.	Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (<i>STIR raqami</i>)	Soliq organlari tomonidan yuridik, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi norezidentlariga biriktiriladigan takrorlanmaydigan raqam.
3.	Tashkilotning asosiy iqtisodiy faoliyat turi	Tashkilot qo'shimcha qiymat hajmida hissasi yuqori bo'lgan faoliyatning Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichga ko'ra kodi. Mazkur kod ro'yxatdan o'tish vaqtida belgilanadi va yillik statistika hisobotlariga asosan o'zgartirilishi mumkin.
4.	Ma'muriy-hududiy obyektning belgilash tizimi kodi (<i>MHOBT</i>)	MHOBT kodi davlat ro'yxatidan o'tish yoki qayta ro'yxatdan o'tkazish uchun yuridik shaxs tomonidan so'rovnoma shakllantirilganda ko'rsatilgan manziliga asosan ro'yxatdan o'tkazuvchi organ tomonidan biriktiriladi.
5.	Joylashgan joyi (<i>pochta manzili</i>)	Davlat ro'yxatidan o'tkazish yoki qayta ro'yxatdan o'tkazish uchun yuridik shaxs tomonidan so'rovnoma shakllantirilganda ko'rsatilgan manzil hisoblanadi.
6.	Telefon raqami (<i>mavjud bo'lsa</i>)	Davlat ro'yxatidan o'tkazish yoki qayta ro'yxatdan o'tkazish uchun yuridik shaxs tomonidan so'rovnoma shakllantirilganda ko'rsatilgan telefon raqami.

7.	Elektron pochta manzili (<i>mavjud bo'lsa</i>)	Davlat ro'yxatidan o'tkazish yoki qayta ro'yxatdan o'tkazish uchun yuridik shaxs tomonidan so'rovnomma shakllantirilganda ko'rsatilgan elektron pochta manzili.
8.	Tashkilotning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha kodi va nomi (<i>THShT</i>)	O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga muvofiq tashkilotlar tuzilishi mumkin bo'lgan shaklning (tijorat (mas'uliyati cheklangan jamiyat, aksiyadorlik jamiyati va boshqalar), notijorat (muassasa, jamoat fondi, jamoat birlashmasi va boshqalar) kodi bo'lib, yuridik shaxslarning ta'sis hujjatlari asosida ro'yxatdan o'tkazuvchi organlar tomonidan belgilanadi.
9.	Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ nomi	Qonunchilikda belgilangan yuridik shaxslarni ro'yxatdan o'tkazuvchi organlar (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va uning hududiy boshqarmalari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki).
10.	Davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sana	Yuridik shaxs tashkil etilgan sana
11.	Davlat ro'yxatidan o'tkazilgan raqam	Yuridik shaxs tashkil etilgan reyestr raqami
12.	Kichik tadbirkorlik subyektiga mansubligi	Vazirlar Mahkamasining "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 2016-yil 24-avgustdagi 275-son qaroriga 1-ilovaga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan tashkilotlar.
13.	Faollik holati	Faoliyat ko'rsatayotgan, faoliyat ko'rsatmayotgan va tugatilgan yuridik shaxslarning holati
14.	Ustav fondi	Tijorat tashkilotlarida ulushlarga yoki muassislarning aksiyalariga bo'lingan fond.
15.	Ta'sischi	Yuridik shaxslarning ta'sischi hisoblangan yuridik va jismoniy shaxslar.
16.	Rahbar	Korxonalar va tashkilotda ijro etuvchi organi funksiyasini amalga oshirayotgan jismoniy shaxs

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bo'yicha ma'lumot taqdim etish xizmatini ko'rsatishning ma'muriy [reglamentiga](#)
2-ILOVA

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bo'yicha ma'lumot taqdim etish xizmatini ko'rsatish

SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Ijro muddati
1-bosqich	Xizmatdan foydalanuvchi (yuridik yoki jismoniy shaxs)	Davlat xizmatlari markazlariga bevosita murojaat etadi yoki davlat xizmatidan elektron shaklda foydalanish uchun Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida ro'yxatdan o'tadi.	Xizmatdan foydalanuvchi xohishiga ko'ra
2-bosqich	Davlat xizmatlari markazi yoki xizmatdan foydalanuvchi	Xizmatdan foydalanuvchi haqidagi ma'lumotlar kiritiladigan so'rovnomani to'ldiradi va elektron shaklda Davlat statistika qo'mitasiga yuborish uchun tayyorlaydi. Tayyorlangan savolnomaga qo'shimcha ravishda axborot tizimida tegishli tashkilot	Davlat xizmatlari markazi orqali murojaat qilinganda,

		to'g'risidagi zarur bo'lgan ma'lumot turlarini belgilaydi. Zarur ma'lumotlar turlarini belgilagandan so'ng Davlat statistika qo'mitasiga elektron shaklda so'rov yuboradi.	real vaqt rejimida
3-bosqich	Davlat statistika qo'mitasi	Elektron so'rovga ko'ra ma'lumotning qiymatini hisoblab chiqadi va xizmatdan foydalanuvchiga elektron shaklda tegishligi bo'yicha davlat xizmatlari markaziga yoki xizmatdan foydalanuvchining shaxsiy kabinetiga ma'lum qiladi.	Avtomatik ravishda
4-bosqich	Xizmatdan foydalanuvchi	Tegishli elektron to'lov tizimi orqali hisoblangan summada to'lovni amalga oshiradi.	Uz xohishiga ko'ra
5-bosqich	Davlat statistika qo'mitasi	To'lov amalga oshirilgandan so'ng so'ralgan ma'lumotlarni Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali tegishligi bo'yicha davlat xizmatlari markaziga yoki xizmatdan foydalanuvchining shaxsiy kabinetiga yuboradi.	3 ish kunidan oshmagan muddatda
6-bosqich	Davlat xizmatlari markazi Xizmatdan foydalanuvchi	To'lov amalga oshirilgandan so'ng davlat xizmatlari markaziga yuborilgan ma'lumotlarni xizmatdan foydalanuvchiga elektron shaklda taqdim etadi. Davlat statistika qo'mitasi tomonidan xizmatdan foydalanuvchining o'ziga yuborilgan ma'lumotlarni o'z shaxsiy kabinetida elektron shaklda yuklab oladi.	3 ish kunidan oshmagan muddatda

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bo'yicha ma'lumot taqdim etish xizmatini ko'rsatishning ma'muriy **reglamentiga**
3-ILOVA

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bo'yicha ma'lumot taqdim etish davlat xizmatidan foydalanish uchun

SO'ROVNOMA

_____ (sana)

_____ (raqami)

I. Ariza beruvchi — jismoniy shaxs to'g'risida ma'lumot:

1. Familiyasi, ismi, otasining ismi	
2. Pasporti yoki identifikatsiyalovchi ID-kartasi ma'lumotlari (JShShIR ma'lumotlari)	
3. Telefon raqami:	
4. Elektron pochta manzili (mavjud bo'lsa):	

II. Ariza beruvchi — yuridik shaxs to'g'risida ma'lumot:

1. Yuridik shaxsning nomi:	
2. Yuridik shaxsning tashkiliy-huquqiy shakli:	
3. STIR:	
4. Joylashgan joyi (pochta manzili):	
5. Bank rekvizitlari: (bank bo‘limi nomi, MFO va hisobvarag‘i)	
6. Elektron pochta manzili (mavjud bo‘lsa):	
7. Telefon raqami:	

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi 539-son qaroriga
3-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining o‘z kuchini yo‘qotgan deb e‘tirof etilayotgan qarorlari

RO‘YXATI

1. Vazirlar Mahkamasining “Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2012-yil 25-sentabrdagi 274-son qarori (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2012-y., 9-son, 70-modda).

2. Vazirlar Mahkamasining “Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida” 2015-yil 3-iyuldagi 179-son qarori.

3. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” 2016-yil 28-oktabrdagi PQ-2646-son qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 9-fevraldagi 66-son qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2017-y., 2-son, 5-modda) 4-ilovaning 5-bandi.

4. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek ba‘zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2017-yil 2-sentabrdagi PF-5177-son Farmoni)” 2017-yil 9-oktabrdagi 810-son qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2017-y., 10-son, 229-modda) 1-ilovaning 23-bandi.

5. Vazirlar Mahkamasining “2022-yil uchun Statistika dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” 2022-yil 7-fevraldagi 61-son qaroriga 2-ilovaning 3-bandi.

6. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida” 2022-yil 4-apreldagi 153-son qaroriga ilovaning 290-bandi.

(Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.09.2022-y., 09/22/539/0863-son)